

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: O CERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

July 2023

Science Editor: **Cetin Avcı**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2023

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan**, Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev**, Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli**, Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munevver Sokmen**, Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journals

Universal
Impact Factor

"DIYDOR" TEATR STUDIYASIDA - "YULDUZLI TUNLAR"

Nurmanova Barno Axmadjon qizi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Teatr san'ati" ixtisosligi tayanch doktoranti
O'zbekiston, Toshkent
layli.shirin00@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada "Diydor: teatr studiyasida Baxodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan "Yulduzli tunlar" spektakli, spektakldagi kino aktyorlarining teatr sahnasida sahnalashtirilgan dramaik spektakldagi ijrosi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: rejissor, teatr, aktyor, dramaturgiya, obraz, xarakter, kechinma, eksperiment, talqin.

IN "DIIDOR" THEATER STUDIO - "STARLY NIGHTS"

Barno Nurmanova
Uzbek State Institute of Arts and Culture
Basic doctoral student in "Theater Arts"
Uzbekistan, Tashkent
layli.shirin00@mail.ru

Abstract: The article talks about the play "Starry Nights" staged by Bakhodir Yoldoshev in "Diydor: theater studio", the performance of the film actors in the dramatic play staged on the stage of the theater.

Keywords: director, theater, actor, dramaturgy, image, character, experience, experiment, interpretation.

"Diydor" teatr-studiyasida rejissyor Baxodir Yo'ldoshev tomonidan P.Qodirov asari asosida sahnalashtirilgan - "Yulduzli tunlar" spektakli ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Spektaklda Zahiriddin Muhamamad Bobur rolini aktyor - Adiz Rajabov va Alisher Uzoqovlar, Shayboniyxon rolini - Bobur Yo'ldoshev, Qutlug' Nigorxonim obrazini aktrisa - Nazokatxon Narziyeva, Boburning yoshligini aktyor - Sunnat Umarov, Xonzodabegim rolini aktrisa - Yulduz Rajabovalar ijro qildilar.

Drama o'ziga xos talqinda sahnalashtirilgan bo'lib, spektaklda zamon ruhi aks etgan va sarkardaning eng qiyin vaqtlardagi iztiroblari, qayg'ulari inson yuragiga yetib boradigan darajada gavdalantirilgan.

"Yulduzli tunlar" spektaklida kinodagi ijrolari bilan tanilgan aktyorlar namoyon bo'lganiga qaramay, ijrochilar personajlarning sahnaviy kechinmalarini his qilib, rollarini mahorat bilan ijro etib, obraz darajasiga yetkaza oldilar. Xususan, Alisher Uzoqov tomonidan gavdalantirgan Zaxiriddin Muhammad Bobur roli - g'am-tashvishlarga ko'milgan, vatan sog'inchida yongan, yaqinlaridan hiyonat ko'rgan shohning iztiroblarini to'la ochib bera olgan.

Spektaklda Boburning yonida bo'lgan maslakdosh do'sti, me'mor Fazliddin roli aktyor - Akbarxo'ja Rasulov tomonidan ijro etilgan. Oddiy xalqdan chiqqan me'mor yigit, o'zining sofdilligi, ochiqko'ngilligi bilan Boburning qalbidan o'rin oladi. Tadqiqotchi Shohrux Abdurasulov o'zining maqolasida aktyorning ijrosi xususida - "Garchi oddiy qavmdan bo'lsa-da, Bobur pinhoni dardlari, sir-asrorlarini aynan me'morga izhor etadi, undan maslahat, ko'mak so'raydi. Umuman, haqiqiy do'stlik mansabu martaba,

sarhadu chegara bilmasligi, qalbi va botini yaqin insonlar mudom birodar tutinishi Bobur va me'mor muloqotlarida yorqin aks etadi" [1, B.5.], deydi.

Aktor ijrosi, rejissyor talqiniga asoslanganini alohida ta'kidlash lozim. Spektaklning so'nggida Zaxiriddin Muhammad Boburning ichki kechinmalari, qalb tug'yonlari avj pallasiga yetib, o'z hissiyotlarini, dardlarini to'kib sochishi, uning chorasiz holatini gavdalandiradi. Baxodir Yo'ldoshevning rejissyorlik talqini o'ziga xos bo'lib, bunday yechim uning boshqa spektakllarida uchramaydi. Chunki, bu talqin butunlay shartli yechimlarga asoslangan. Natijada, ijrodagi va ssenografiyadagi ma'juziy topilmalar - falsafiy mulohazalar bilan muvofiqlashib, o'ziga xos rejissyorlik talqini yuzaga keladi.

Boburning opasi Xonzodabegim obrazini aktrisa Yulduz Rajabova o'ziga xos tarzda talqin qilgan. Uning ijrosidagi malika obrazida - sho'x-shodon, hayotining eng betashvish onlarini kechirayotgan chog'ida, oilasining boshiga tushgan bunday mudhish hodisadan g'amga botadi. "Boburning suyuqli opasi Xonzodabegim obrazini aktrisa Yulduz Rajabova ijro etdi. Xayotining masrur onlarida quvonchu shodlikdan sarafroz bo'lib, beg'ubor umr kechirayotgan malika, ukasi boshiga tushgan og'ir sinovlardan so'ng g'am-tashvishga botadi, shodon chehrasiga hasrat oralaydi. Spektaklda Xonzodabegimning lirik kechinmalariga keng ypg'y berilgan. Xususan, Me'mor Fazliddin (A.Rasulov) maxfiy tarzda chizgan suratini tomosha qilarkan, beixtiyor ko'nglida go'zal istaklar uyg'onadi, biri malika, biri oddiy hunarmand bo'lsa-da, ikki yoshning sof va samimiy muhabbati, nafis suhbatlari tomoshabinni hayajonga soladi. Yulduz Rajabova Xonzodabegimning nozik dunyosi, ayollik siyratini so'z va holatlar orqali ko'rsatishga, qahramon tabiatining daqiq, sirli qirralarini kashf etishga harakat qiladi" [2, B.4.].

Aktrisa Yulduz Rajabovaning Xonzodabegim obrazini ular uchun yaratilgandek, tasavvur qilasiz. Aktrisa sharqona ibo, hayosi va latofatini mohirona ijro etish bilan bir qatorda, birgina ukasi Bobur Mirzoga qarata "Amirzodam", "Boburjon", "Inim" deb murojaat qilishlari orqali otadan erta yetim qolib, saltanatning og'ir yukini o'z gardaniga olgan ukasiga bo'lgan mehribonligi, ukasining ichki dard va faryodlarini jim turib tinglashlari har qanday tomoshabinni hayajonlantiradi. Yulduz Rajabovaning ijrosi xususida Qunduzxon Nishonboyeva shunday deydi - "Umidli aktrisalardan sanalgan Yulduz Rajabova ijrosidagi Xonzodabegim roli yana bir ayol obrazining yangicha talqiniga turtki berib, muxlis va mutaxassislar e'tirofini qozondi. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, Xonzodabegim yuksak did-farosat, zehn va aql-zakovat sohibasi bo'lgan. Yulduz Rajabova ana shunday nozik xilqat egasini bor bo'y-basti bilan yetkazishga intilib, zohiriy qiyofaning botiniy dunyosini yaratishga harakat qilgan. E'tiborli jihati, To'maris, Nodirabegim singari obrazlardan farqli ravishda Xonzodabegim siymosida ayolning opalik maqomi, tug'ishgan jigariga mehru-vafosi ko'rsatilgan. Mazkur qahramonning ijtimoiy vazifasi opa-uka, aka-singillar o'rtasida asli qanday oqibat bo'lishi kerakligini isbotlash, buni tomoshabinlar qalbiga singdirishdan iborat bo'lsa, ajab emas" [2, B.35.]. Spektaklning yutug'i - ayni bugungi kunda yoshlar, insonlar o'rtasida mehr-muhabbat, shirin so'z unutilib, opa-ukalar, aka-singillar orasida oqibat yo'qolib borayotgan bir paytda mudroq qalblarni uyg'otishidadir.

"Yulduzli tunlar" spektaklidagi yana bir ayol obrazi bu - Qutlug' Nigorxonim obrazidir. U saroyni, saltanatni boshqarishda duch kelgan mushkulotlarga qaramay, hamisha insonparvar bo'lishga intilgan. Bu obrazni teatr-studiyaning yosh iste'dodli aktrisaralaridan biri Nazokat Narziyeva mahorat bilan ijro etgan. Qutlug' Nigorxonim ilm-ma'rifatliligi, o'tkir zehn sohibasi ekanligi bilan ajralib turgan. U farzandlarining ilm o'rganishlariga alohida e'tibor qaratadi. Aktrisa qahramoni qiyofasida, atrofida qilarga o'ta talabchanligi, natija sari intiluvchi ayol obrazini yuksak mahorat bilan ijro etadi. "Spektaklda Nazokat Narziyeva ijrosidagi Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim obrazi tomoshabinni Temuriylar saltanatining ichki hayotiga boshlaydi. U vatanni sevuvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy,



iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashgan, ilm-ma'rifatli va farzandlariga talabchan ayol sifatida ijro qilingan" [2, B.35.], - deydi, Q.Nishonboyeva.

Rejissyor tomonidan aktrisaning keng ovoz diapazonga ega ekanligi inobatga olinib, jarangdor ovozli Nazokat Narziyevaga ishonib topshirgan ona roli ta'sirchanligi bilan birga, jasoratligi, zehniligi, sabr-bardoshga to'laligi, qaror qabul qilishda aql bilan ish ko'radigan Temuriylar saltanatining haqiqiy malikasi qiyofasini gavdalantiradi. Asarning eng hayajonli sahnalaridan biri Boburning o'g'li Humoyun Mirzoning joni evazigaga jon berish onidir.

"Yulduzli tunlar" spektaklining yana bir yutug'i Temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida, avvalo, inson sifatida yuksak martabaga ega, iste'dodli, siyosatdon, suxandon, yetuk olim va xassos shoirlar badiiy talqin etilganligidadir. Spektaklning yangi talqinini tomosha qilar ekansiz, sahnadagi o'ziga xos topilmalarga amin bo'lamiz. Chunki, kinoda mashhur bo'lgan aktyorlarning teatr-studiya sahnasida o'z qahramonlarini gavdalantirishi quvonarli hol albatta. Negaki, tomoshabinlar kino aktyorlarining yangi qirralari ochilganiga guvoh bo'ladi. "Spektaklda asosan zamonaviy o'zbek kinosining tanikli yosh vakillari-Alisher Uzokov, Yulduz Rajabova, Bobur Yo'ldoshev, Adiz Rajabov, Akbarxo'ja Rasulov va studiyaning yosh ijrochilarini ko'rish mumkin. Tomoshabinlarga ko'proq filmlar orqali tanilib kelayotgan ijodkorlarning teatrda namoyon bo'lishi bir tarafdin spektaklga qizikishni kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchi jihati-ekranda toblanayotgan aktyorlarning chinakam mahorati, ruhiy quvvati sahnada sinovdan o'tdi. Asli haqiqiy aktyor teatru kinoda bo'lsin, obrazga birdek mas'uliyat bilan yondashadi, holatu kechinmalar, his-tuyg'ularni yurakdan o'tkazib o'ynaydi. Nazdimizda, bu haqiqat "Yulduzli tunlar" spektaklida yana bir karra tasdig'ini topdi" [1, B.3.].

Boburshoh - Alisher Uzoqov farzandi xastaligidan iztirob chekib: "Charxning yana men ko'rmagan qanday jabru jafosi qoldi ekan, mavlono Xondamir" deya Xondamirga yuzlanar ekan, musiqa yangrab, u - Bobur tilidan g'azal kuylaydi. Qo'shiqni ayonlar bilan shunday kuylaydiki, bu bilan charxi falakning ishlariga lol qolib, shohga suyanchiq bo'lishdek vazifani o'taydi.

Boburshoh ayonlarning saroydagi maslahatlariga quloq solgan holda shunday deydi - "Humoyunning mendan o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'qdir. Men o'zim tasadduq bo'lay... jonim tasadduq bo'lsin!" - degan qarori bilan shahzoda joniga orom bag'ishlaydi. Boburshoh toj-u taxtni o'g'li Humoyun Mirzoga topshirar ekan, adolatli shoh bo'lishlikni talab qiladi, o'z ota yurtini farzandlari taqdirida ko'rishni niyat qilib qoladi. O'g'lini kuzatib qo'yar chog'ida misralar o'qib, o'g'lini kuzatib qo'yadi. Shoh tilidan o'qilgan misralar Boburshoh so'nggi so'zlari bilan tomoshabinlarga yuzlanar ekan, avlodlar xotirasida o'zi yaratib ketgan ulkan ijodiy merosi bilan abadiy yashamoqligini aytadi. B.Yo'ldoshev aktyorlar ansamblini tanlashda va personajlarni taqsimlashda puxta o'ylab, ularga ishonib rolni beradi. Natijada, repetitsiya jarayonlaridagi, tinimsiz mehnatlari zoye ketmaydi. Ustozning ko'nglidan o'tib "pishgan" tarixiy shaxslarning taqdiri, ichki monologlari, dialoglari kutilgan sahnada, kutilgan daqiqalarda o'z ifodasini topadi. Chunki, Bahodir Yo'ldoshev spektaklga tayyorgarlik jarayonlarining hech birini pishiq-puxta rejasiz, mezansahnalari oldindan belgilangan rejissyorlik tahlilisiz boshlamagan. Bu tahlillarning ayrimlari qog'ozda qoralanmasa-da, miyasida bir necha bor saralangani uchun natija beradi.

Xulosa shuki, teatr sahnalariga tasodifan kirib qolgan, yohud faqat o'z manfaati, xudbinona mashhurlik istab kelgan havaskor aktyorlar ko'paymasligi uchun rejissyor Baxodir Yo'ldoshev K.S.Stanislavskiyning aktyor oldiga qo'ygan talab va qonuniyatlari asosida shogirdlarini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Sababi, rejissyor iqtidorli aktyorsiz sahnada hech qanday natijaga erishib bo'lmasligini, spektaklning shakl va mazmun

birligi aktyor ijrosisiz amalga oshmasligini, tomoshabinni ham aktyorning ijrosisiz ta'sirlantirib bo'lmasligini yaxshi biladi. Demak, Baxodir Yo'ldoshevning spektaklning umumiy atmosferasini ta'minlaydigan teatr komponentlariga hamda aktyorlar ansambliga e'tibor qaratganidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

- 1.Abdurasulov Sh. Bobur bilan "diydor"lashuv. -Toshkent. // Teatr, 2016. 6-son.
- 2.Nishonboyeva Q. Sahnada tarix yaratgan ayollar siymosi. -Toshkent.: // Teatr, 2017. 2-son.

ELSEVIER



SSRN
SOCIETY FOR
SCIENTIFIC RESEARCH NETWORK

Universal
Impact Factor